

TO'QIMACHILIK MATERILLARI SIFATI, SIFAT KO'RSATKICHLARINI ANIQLASH VA XUSUSIYATLARI

Kdirbaeva Shukirjan

Qaraqolpoq davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada to'qimachilik materiallarini sifat ko'rsatkichlari, sifat ko'rsatkichlarini aniqlash va uning bosqichlari va ahamiyati haqida nazariy ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: mahsulot, to'qimachilik, sifat, sifat nazorati, iste'molchi, sinov.

Mamlakatimizda barcha sohalarda olib borilayotgan islohatlarning ustuvor maqsadi – yurtimizda yashayotgan barcha fuqarolar uchun munosib hayot sharoitlarini tashkil etib berishdan iboratdir. Xalq farovonligini oshirishda to'qimachilik korxonalarining zamon talabiga javob bera oladigan mahsulotlar ishlab chiqarishining ahamiyati kattadir. Bu maqsadga erishishning asosiy yo'nalishlaridan biri jahon standartiga javob bera oladigan raqobatbardosh xilma-xil to'qimachilik ishlab chiqarishni ilm-fan yutuqlarini hisobga olgan holda amalga oshirishdir. O'zbekiston hukumati qabul qilayotgan qarorlarida asta sekin mamlakatimizda tayyorlanayotgan xom ashyoni sifatli, tayyor mahsulot darajasiga etkazish dolzarb masalalardan biri deb hisoblanmoqda. Bu borada mamlakatimizda ko'plab qaror va farmoishlar chiqarildi. 2017-yil 14 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” 5285-son Farmoni chiqarildi[1].

Ushbu farmonida Respublikada keng turdagi sifatli to'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarilishini tashkil etish, uning ishlab chiqarilishini mahalliy lashtirishni chuqurlashtirish, shuningdek, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar, to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirish uchun zarur huquqiy baza va qulay sharoitlar shakllantirishga qaratilgan.

To'qimachilik sanoatida albatta mahsulot sifat ko'rsatkichlari va mijozlar talablariga javob berishini ta'minlash uchun sifat nazorati amalga oshiriladi. Asosan, sifat nazorati - bu mahsulot yoki xizmatning ma'lum ishlash standartlariga javob berishini ta'minlash uchun mo'ljallangan jarayon bo'lib hisoblanadi.

Sifatni nazorat qilishning asosiy maqsadi - mahsulot iste'molchilar xohish-istagi va talablariga javob berishini ta'minlashdir. Yaxshi sifat nazorati ishlab chiqaruvchiga xato va chiqindilarni kamaytirish va samaradorlikni oshirish uchun ishlab chiqarish jarayonlarini yaxshilashga yordam beradi.

To'qimachilik sanoati sifatini nazorat qilish - bu to'qimachilik ishlab chiqarish jarayonining boshidan, xom tolalarni sotib olishdan to mahsulotning paydo

bo'lishigacha amalda qo'llaniladigan dastur. To'qimachilik mahsulotlari mahsulot sifati va ishlab chiqarishning turli komponentlari bilan baholanadi. Xom ashyoni tanlash, tola ishlab chiqarish, ip ishlab chiqarish, mato tuzilishi, bo'yash va bo'yash, matbaa va dizayn, fermuar yoki bezak kabi pardozlash komponentlari mahsulot sifatini aniqlaydi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan to'qimachilik mahsulotining asosini paxta va paxtaxta mahsulotlari tashkil etadi. Paxta mahsuloti tabiiy xomashyo bo'lganligi sababli paxtadan tayyorlangan to'qimachilik mahsulotlariga talab juda yuqoridir. Paxta va paxta mahsulotlarining sifat ko'rsatkichlarini oshirish hozirgi bozor iqtisodiyotining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Keyingi paytlarda iste'molchilarning paxta mahsulotlariga bo'lgan talabi kundan kunga ortib bormoqda. Chunki, hozirgi paytda Respublikamizning ichki bozorlari xorijdan keltirilayotgan sifatli mahsulotlarga bo'lgan talabi katta. Bizning asosiy maqsadimiz ichki bozorlarimizni o'zimizda ishlab chiqarilayotgan sifatli mahsulotlarni ko'paytirish va to'ldirish, hamda respublikamiz eksport salohiyatini oshirishdan iboratdir. Paxta mahsulotlarini tashqi va ichki bozorlarda raqobatlasha oladigan bo'lishi kerak. Mahsulot sifatini yaxshilash va uning raqobatbardoshligini oshirish va ta'minlash masalasi respublikamiz iqtisodiyotini yanada rivojlantirish uchun katta ahamiyatga egadir. Yuqori sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarish, ta'minlash va rejalashtirishda zamonaviy baholash uslublari va sifat ko'rsatkichlarining standartlarini yaxshi bilishlari lozim. Paxta mahsulotlarini sifatini yaxshilash uchun qator amaliy ishlar olib borilmoqda.

Xalqaro ISO tashkilotiga 1992 yilda a'zo bo'lgan O'zbekiston Respublikasida metrologiya va standartlashtirish bo'yicha asosiy talablarni bajarish borasida «Sifat» tizimi joriy etildi. Mahsulot sifatini yaxshilash va uni oshirish muhim ahamiyatga egadir. [2,5]

Buning uchun muhandis texnik xodimlardan yangi turdagi texnologik mashinalar yaratish va ulardan samarali foydalanish, mahsulot sifatini baholash jarayonida matematik usulda asoslashni bilishlarini talab etadi. Bulardan kutilayotgan asosiy maqsad esa nazariy va amaliy bilimlarni jamlab, paxta mahsulotlari sifatini baholash va standartlashtirish ishlarini amalga oshirishdir. Mahsulot sifatini baholash va baholashning nazariy va amaliy jihatdan bog'lanish masalalari keyingi paytlarda mustaqil ilmiy yo'nalishda shakllanib bormoqda. Paxta mahsulotlarini sifat ko'rsatkichlarini standartlashtirishda «sifat» tushunchasi va uni baholash uslublarini ko'rib chiqish muhimdir.

Mahsulot sifati- mahsulotning barcha xossalari va xususiyatlari bo'lib, undan foydalanish davridagi iste'molchilar talabini to'la qondirishidir. Mahsulotning sifatini ishlatilish davrida aniqlash, talab darajasiga qarab o'zgarib boradi. Shu sababli bir yoki boshqa bir turdagi mahsulot uchun, ayniqsa ko'p maqsadlarda ishlatiladigan mahsulotlarning sifatini baholash doimiy o'lchamda bo'lmaydi. Ko'pgina ilmiy-tadqiqot ishlarida va adabiyotlarda «sifat» tushunchasi kengroq ishlatiladi va unga

berilayotgan taʼriflar ham turlichadir. Professor A. N. Solovyev «sifat» tushunchasini quyidagicha baholaydi: “Material sifati - bu talab xossalari bogʻliq boʻlib, materialning qayta ishlanilishi va ishlatilishi uchun yaroqliligi demakdir”. Mahsulotning sifat koʻrsatkichi - mahsulot xossasining miqdoriy xususiyati boʻlib, sifat tarkibiga kiradi, yaʼni uni yaratish va ishlatish, hamda isteʼmolchilarga yetkazishdagi talabini qondirish. Paxta mahsulotlarining sifat koʻrsatkichlari boʻyicha talab shartlari standartlar, texnik shartlar yoki meʼyoriy-texnik hujjatlarda keltirilgan boʻladi. Barcha mahsulotlarning sifat koʻrsatkichlari ifodalanishi boʻyicha oʻlchamli va oʻlchamsizga (nisbiy yoki balli) boʻlinadi. Sifatni baholash darajasi - bu jarayonlarning jami boʻlib, oʻziga sifat koʻrsatkichlarning nomenklaturasini qoʻshadi va mahsulot sifatini boshqarishda ularning sonli qiymatini, shu bilan birgalikda bazali va nisbiy koʻrsatkichlarini aniqlaydi. Hozirgi paytda meʼyoriy-texnik hujjatlarning talablarini hisobga olgan holda, paxta mahsulotlarining sifat koʻrsatkichlarini baholashda mahsulotning navi aniqlanadi, attestasiyalash davrida esa uning sifat bosqichi belgilanadi. Mahsulot sifatini nazorat qilish - bu tekshirishga bogʻliq boʻlgan mahsulot sifat koʻrsatkichlari talablarida belgilanadi. Sinov - obyektning miqdoriy yoki sifat xossalari boʻyicha eksperimental aniqlash demakdir. Sinov uslubi - sinov ishlarini oʻtkazish uchun belgilangan prinsiplarning qoʻllanilishidagi jami qoidalari. Mahsulot sifati boshlangʻich qiymatga ega boʻladi. Shu sababli mahsulot sifatini baholash yoki oʻlchashda quyidagilari aniqlash va asoslash lozim:

-toʻla-toʻkis ishonchli baholash usullari material xossalarining meʼyoriy shartlariga bogʻliqligi boʻlib, bu xossalarni aniqlashda xatoliklar hisobga olinadi;

-sifat koʻrsatkichlarini tanlash, materialning ishlatilishga toʻla- toʻkis yaroqliligini koʻrsatadi;

-taʼminlovchi imkoniyatlarini hisobga olgan holda meʼyoriy shartlarning ratsional darajasi. Mahsulot sifat koʻrsatkichini ifoda etgan birligiga qarab quyidagilarga ajratish mumkin:

-miqdoriy birliklarda aks etgan;

-miqdoriy boʻlmagan birliklarda aks etgan; -asosga binoan sinash yoʻli bilan olingan ;

-birgina xossasini ifoda etuvchi; -butun bir necha xossasini ifoda etuvchi.

Mahsulot sifatini baholashda natijaning qanchalik toʻgʻri va haqiqatga yaqin boʻlishi ham katta ahamiyatga egadir. Sifat koʻrsatkichini aniqlashda odatda oddiy standart sinash usuli ishlatiladi. oʻlchashning xatoligi 5 foizdan oshmaydigan maxsus asbob-uskunalar yordamida bajariladi. Sinov ishlarini olib borishdan oldin namuna belgilangan sharoitda saqlanishi lozim. Bunda boshlangʻich koʻrsatkichlarini belgilash katta ahamiyatga ega. Boshlangʻich koʻrsatkichlar oʻz navbatida toʻgʻri yoki notoʻgʻri, ahamiyatli yoki ahamiyatsiz boʻlishi mumkin. Tekshirish orqali aniqlangan oʻlchashlar mahsulot sifat darajasini mujassamlashtirgan asoslar koʻrsatkichlar bilan taqqoslanadi.

Shuning natijasida, bu daraja yo o'zgaradi, yo o'zgarmaydi, yoki umuman doimiy qolishi mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, to'qimachilik sanoatida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni sifat nazoratidan o'tkazish bu sifatli mahsulotlar kafolati bo'lib hisoblanadi. Sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarish esa nafaqat mahaliy bozorlarni egallash, balki tashqi bozorlarda ham, mahsulotning o'z mustahkam o'rnini egallash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF 5285-son 14.12.2017 y
2. A. Salimov. Mahsulotlar sifatini aniqlash va sertffikatlash. -T.: «Fan va texnologiva», 2019, 216 bet.
3. U.M. Matmusayev. To'qimachilik materialshunosligi. «O'zbekiston» Nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent – 2005, 270 bet.